

## KREDIT SHARTNOMASI

Toshkent shahar

|   |   |
|---|---|
| Kredit shartnomasi raqami   |   |
| Kredit shartnomasi tuzilgan sana  |   |
| Kreditni kodi (onlayn to'lov)   |   |
| Qarz beruvchi   | “MIKROMOLIYA TASHKILOTI OASISCREDIT” mikromoliya tashkiloti mas’uliyati cheklangan jamiyati shaklidagi xorijiy korxonasi nomidan ustav asosida ish yurituvchi Bosh direktor Guseynov Mahmudali  |
| Qarz oluvchi  | Yakka tartibdagi tadbirkor F.I.SH   |
| <i>Qarz beruvchi va Qarz oluvchi keyingi o'rinnlarda – “Tomonlar” deb ataladi</i> |   |
| Kredit turi   | Mikrokredit   |
| Kredit miqdori  |   |
| Kredit valyutasi  | O'zbek so'mi  |
| Kredit muddati  | __ oy   |
| Kreditning maqsadi  | Aylanma mablag'larni to'ldirish uchun   |
| Stavka foizi  | __ %  |
| Foizlarni hisoblash usuli   | Fakt / 365 (366) kun. Asosiy qarzning qoldig'i bo'yicha har kuni  |
| Kechiktirilgan to'lov uchun jarima  | Muddati o'tgan 4-kundan boshlab 2 %   |
| Kredit to'lash shakli   | <b>Naqd pul kassa orqali /<br/>Hisob raqamiga o'tkazish №</b>   |
| Kredit va foizlarni to'lash   | To'lov jadvaliga muvofiq, har oy (1-ilova)  |
| Kredit kafolati   | <b>Yoq / Kafolat shartnomani shartlariga ko'ra № _____</b>  |
| Kredit shartnomasining predmeti   | Qarz beruvchi Qarz oluvchiga qaytarish, to'loving foizliligi va muddatliligi shartlari bilan moliya xizmatlari (keyingi o'rinnlarda – “Kredit” deb ataladi) bilan ta'minlash majburiyatini oladi, Qarz oluvchi esa o‘z zimmasiga shartnomada belgilangan shartlar asosida Kreditni, foizlarni va boshqa to'lovlarni qaytarish majburiyatini oladi |

### 1. UMUMIY HOLATLAR

- 1.1 Kredit shartnomasini tuzish orqali Tomonlar, Qarz beruvchining rasmiy veb-saytida (<https://oasis.uz/>) joylashtirilgan Moliyaviy xizmatlarni ko'rsatish qoidalariда (<https://oasis.uz/qoidalari/>) , shuningdek, O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi normalari bilan belgilangan, o'zaro huquq va majburiyatlarini tasdiqlaydilar.

Qarz oluvchi ushbu shartnomaning ajralmas qismi bo'lgan Qarz beruvchining Moliyaviy xizmatlarni ko'rsatish qoidalari bilan tanishganligini va qabul qilganligini tasdiqlaydi.

- 1.2 Qarz oluvchi quyidagilarni tasdiqlaydi:

- Kredit shartnomasini tuzayotganda, uning ahamiyatini to'liq tushunishini va uni tuzishning huquqiy oqibatlarini anglashini;

Qarz oluvchi \_\_\_\_\_

Qarz beruvchi \_\_\_\_\_

- Kredit shartnomasini tuzayotganda ixtiyoriy tugatish va/yoki bankrotlik jarayonida emasligini;
- Qarz oluvchining mulkiy holatiga tahdid soluvchi sud ishlarida davogar, javobgar yoki uchinchi shaxs emasligini.

## 2. KREDIT BERISH TARTIBI VA SHARTLARI

- 2.1. Qarz beruvchi kredit arizasi va Qarz oluvchi tomonidan taqdim etilgan hujjatlarniolgandan so'ng 3 ish kuni mobaynidaularni ko'rib chiqadi va Qarz oluvchiga kredit berish to'grisida qaror qabul qiladi yoki asoslantirilgan rad javobini beradi.
- 2.2. Qarz beruvchi Qarz oluvchiga Kredit shartnomasi va Qarz beruvchining Moliyaviy xizmatlarni ko'rsatish qoidalari bo'yicha barcha majburiyatlarini bajarganidan so'ng **1 (bir) ish kuni ichida** unga Kredit berish majburiyatini oladi.
- 2.3. Kredit olish uchun hujjatlar ro'yxati va Kredit berishning boshqa shartlari Moliyaviy xizmatlarni ko'rsatish qoidalarida ko'rsatilgan.

## 3. TARAFLARNING HUQUQ VA MAJBURIATLARI

### 3.1. Qarz oluvchi quyidagi huquqlarga ega:

- 3.1.1. Kredit shartnomasi tuzilgan kundan e'tiboran 14 (o'n to'rt) kalendar kun mobaynida, bepul asosda Kreditning foydalanimagan qismidan, bu haqda Qarz beruvchini qog'oz yoki elektron shaklda xabardor qilish orqali rad etish. Bunda Qarz oluvchi keyingi 2 (ikki) kalendar kuni ichida Kredit bo'yicha barcha pul majburiyatlarini to'lashi shart.
- 3.1.2. Kredit bo'yicha qarzni to'liq yoki qisman muddatidan oldin to'lashni amalga oshirish.
- 3.1.3. Uchinchi shaxslarga Qarz beruvchi bilan kelishilgan holda Kredit shartnomasi bo'yicha Kredit, foizlar va boshqa to'lovlni to'lash huquqini berish.
- 3.1.4. O'z huquq va majburiyatları, shu jumladan moliyaviy xizmatlar ko'rsatish bilan bog'liq barcha xarajatlar haqida ishonchli va to'liq ma'lumot olish.

### 3.2. Qarz oluvchi majburiyatları:

- 3.2.1. Kreditni Qarz beruvchiga to'liq qaytarish va undan foydalanganlik uchun foizlarni To'lov jadvalida (1-ilova) nazarda tutilgan tartibda va muddatida to'lash.  
Agar Kredit shartnomasi bo'yicha har qanday to'lov sanasi dam olish, bayram yoki boshqa ishlamaydigan kunga to'g'ri keladigan bo'lsa, bunday to'lovlar to'lov sanasidan keyingi ish kunida amalga oshirilishi kerak.
- 3.2.2. Qarz beruvchiga asosiy qarz, foizlar, penya va/yoki Kredit bo'yicha boshqa to'lovlni to'lash muddati tugagach, Kredit shartnomasida belgilangan tartibda, Qarz oluvchining O'zbekiston Respublikasi banklarida ochilgan har qanday hisobvaraqlaridan pul mablag'larini aktseptsiz, mutlaq, so'zsiz va nizosiz hisobdan chiqarish huquqni berish.
- 3.2.3. Moliyaviy xizmatlarni ko'rsatish qoidalarida belgilangan boshqa vazifalarni bajarish.

### 3.3. Qarz beruvchi quyidagi huquqlarga ega:

- 3.3.1. Moliyaviy xizmatlarni ko'rsatish qoidalari va Kredit shartnomasida nazarda tutilgan hollarda Kredit yoki uning bir qismini berishni rad etish.
- 3.3.2. Moliyaviy xizmatlarni ko'rsatish qoidalari va Kredit shartnomasida nazarda tutilgan hollarda Kredit, foizlar va boshqa to'lovlni muddatidan oldin to'lashni talab qilish.
- 3.3.3. Moliyaviy xizmatlarni ko'rsatish qoidalarida belgilangan boshqa huquqlarga ega.

### 3.4. Qarz beruvchi majburiyatları:

- 3.4.1. Qarz oluvchi Kredit shartnomasi shartlariga va Moliyaviy xizmatlarni ko'rsatish qoidalariga muvofiq barcha majburiyatlarini bajarganidan keyin unga Kredit berish.
- 3.4.2. Moliyaviy xizmatlarni ko'rsatish qoidalarida belgilangan boshqa vazifalarni bajarish.

Qarz oluvchi \_\_\_\_\_

Qarz beruvchi \_\_\_\_\_

#### 4. TARAFLARNING JAVOBGARLIGI

- 4.1. Tomonlar o'z majburiyatlarini lozim darajada bajarmaganliklari uchun O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari talablariga, Moliyaviy xizmatlarni ko'rsatish qoidalari va Kredit shartnomasi shartlariga muvofiq javobgar bo'ladilar.
- 4.2. Tomonlar o'rtasida tuzilgan amaldagi shartnoma yuzasidan paydo bo'ladigan yoki u bilan bog'liq hamma nizolarni Tomonlar o'zaro kelishib hal qilishga harakat qilishadi. Tomonlar kelishib hal qilolmagan nizo O'zR amal qiladigan qonuniga muvofiq hal qilish uchun Qarz beruvchi ro'yxatga olingan joydagi sudga topshiriladi.

#### 5. BOSHQA SHARTLAR

- 5.1. Ushbu shartnoma Tomonlar imzolagan kundan boshlab kuchga kiradi va Qarz beruvchi va Qarz oluvchi o'z zimmasiga olgan barcha majburiyatlarni to'liq bajargunga qadar amal qiladi.
- 5.2. Qarz oluvchi Qarz beruvchining yozma rozilgisiz Kredit shartnomasi bo'yicha o'z huquq va majburiyatlarini uchinchi shaxsga o'tkazishga haqli emas.
- 5.3. Kredit shartnomasiga har qanday o'zgartirish va qo'shimchalar Kredit shartnomasiga qo'shimcha kelishuvlar tuzish yo'li bilan amalga oshiriladi.
- 5.4. Kredit shartnomasi ikki nusxada tuzilgan bo'lib, ikkalasi xam bir xil yuridik kuchga ega deb xisoblanadi va taraflarga bir nusxdan beriladi.
- 5.5. Kredit shartnomasi bo'yicha Tomonlarning har biri boshqa Tomondan olingan, tijorat, bank sirini tashkil etuvchi ma'lumotlarning O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablariga muvofiq qat'iy maxfiyligini ta'minlaydi.
- 5.6. Qarz oluvchi kredit shartnomasini imzolash orqali uning nusxasini olganligini tasdiqlaydi.

#### QARZ OLUVCHI

**Yashash joyi:**

**Pasport:**

**PINFL**

**Telefon:**

**X/R:**

#### QARZ BERUVCHI

#### "MIKROMOLIYA TASHKILOTI OASISCREDIT" MCHJ XK MMT

Toshkent shahar, Yunusobod tumani, Oloy bozori  
boshi berk ko'cha, 63-uy  
STIR: 308 931 085

R/S: 2021 6000 2054 4570 0001

Bankning MFO: 00974

"KAPITALBANK" ATB OPERATORI

R/S: 2021 6000 8054 4570 0002

Bankning MFO: 00444

"IPAK YO'LI" AIKB BO

Guseynov Mahmudali

Imzo,  
muhr

---

---

Qarz oluvchi \_\_\_\_\_

Qarz beruvchi \_\_\_\_\_